O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Sh.S.Sirojiddinov
2025-yil “___” “___”

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

# BOSHQARUV VA IJTIMOIY SOHALARDA PSIXOLOGIK XIZMAT FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot

**Ta’lim sohasi:** 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar

**Ta’lim yo‘nalishi:** 60310900 – Psixologiya

Toshkent – 2025

## O‘quv mashg‘uloti shakli va soatlar

| Fan/modul kodi<br>BISB304 | | Fan/modul turi<br>majburiy | Ta’lim tili<br>o‘zbek | Ishlab chiqilgan o‘quv yili<br>2025/2026 | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O‘quv mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| 6 | Boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat | 4 | 4 | 60 | 60 | 120 |
| | **Jami:** | **4** | **4** | **60** | **60** | **120** |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarning Boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat fani to‘g‘risidagi ilmiy, nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

**Fanning vazifalari** – fanning tushuncha-kategoriya apparatlari bilan tanishtirish; zamonaviy boshqaruvning asosiy muammolari; ijtimoiy sohada psixologik xizmatning rivojlanishi; boshqaruv va ijtimoiy sohada pisxologik xizmat qonuniyatlarini muhokama etish; boshqaruv psixologiyasining tuzilishi, rivojlanishi, funksiyalarini psixologik xizmat ko‘rsatishning bir biriga bog‘liqligini tahlil qilishi, talabalarda psixologiya o‘qitishdagi kasbiy malaka va ko‘nikmalar hamda o‘rganilayotgan mavzuni tanqidiy mushohada qilishni shakllantirish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Psixologik xizmatni tashkil etish tarixi (2 soat)**

Psixologik xizmatni tashkil etishning uch davri. Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari. Psixologiya fani va amaliyoti. Amaliy psixologiyaning ilmiy asoslari.

**2-mavzu. Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari (2 soat)**

Amaliy psixologiyadan psixologik amaliyotga Psixologik xizmatning samaradorligini ta’minlash muammolari. Psixolog jamiyat va kasbiy hamjamiyatda. Psixoterapevtik xizmat zamonaviy bozori.

**3- mavzu. Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyati (2 soat)**

Rejalashtirish tushunchasi. Sotsial muassasalarida rejalashtirish. Tashkil etish yo‘llari.: tashkilotning asosiy maqsadini shakllantirish. Istiqbolli reja. Tezkor reja. Maqsad qo‘yish va ehtiyojlarni baholash boshqaruvning asosiy funksiyasi sifatida.

**4- mavzu. Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish (2 soat)**

Psixologki xizmatda maqsadli boshqaruv: maqsadli boshqaruv tushunchasi (MBO), psixologik xizmatda maqsadli boshqaruv. Psixologik xizmatda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish bosqichi. O‘zaro maqsad qo‘yish.

**5- mavzu. Shaxsni o‘zini o‘zi anglashi (2 soat)**

Insonning ehtiyojlari. Ehtiyoj va shaxsning o‘zini o‘zi kamol toptirish qobiliyati. Shaxsning o‘zini o‘zi kamol toptirishning sub’ektiv shart-sharoitlari. Keskinlik vaziyatlari muammolsi. Inson tabiatiga turlicha qarashlar.



**6- mavzu.Shaxsni o‘zini o‘zi kamol toptirishi (2 soat)**

Shaxsning o‘zini o‘zi kamol toptirishi. Yaxlitlik va optimallik normal shaxs xarakteristikasi. G. Olport nazariyasi. O‘zini o‘zi kamol toptirish nazariyasi. O‘zini o‘zi kamol toptirish motivlari. Shaxsni o‘zini o‘zi baholash , “refleksiya” tushunchasi. Voyaga yetganlik va yetuklik

**7- mavzu. Amaliyotchi-psixolog faoliyati (2 soat)**

Etika va qadriyatlar, manbalari va qadriyat turlari. Kasbiy faoliyatning etikaviy tamoyillari haqida tushuncha. Amaliyotchi psixolog faoliyatining etikaviy tamoyillari qamrab olgan norma va qoidalar.

**8- mavzu. Amaliyotchi-psixologning etikaviy tamoyillari (2 soat)**

Har xil sotsial vaziyalarda psixolog faoliyatini tartibga solishning axloqiy normalari. Psixologning etikaviy standartlari. Amaliyotchi psixolog ishidagi etikaviy dilemmalar.

**9- mavzu. Amaliyotchi-psixologning maxsus qobiliyatlari (2 soat)**

“Psixolog” kasbining rivojlanishi. Amaliy psixolog kasbi. Amaliy psixologning maxsus qobiliyatlarini sotsial psixologik asoslari. N.A. Aminov va M.V. Molokanov eksperimenti. Ish boshlayotgan konsultant 21 ta oltin qoidasi. Kuyinchaklik sindromi, kuyinchaklik sindromi profilaktikasi.

**10- mavzu. Sotsial-psixologik xizmat (2 soat)**

Kadrlar masalasi tashkilotning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlari yig‘indisi. Kadrlar ishi, inson imkoniyatlari rivojlantirishga yo‘naltirilgan kadrlar ishi tashkilotni rivojlantirish konsepsiyasi ning belgilovchi elementlari. Psixolog kasbiy sifatlarini baholash. Xizmatda xodimlarni saralash. Intervyuni uyushtirish va suhbat o‘tkazish.

**11- mavzu. Sotsial xizmatda personalni boshqarish (2 soat)**

Superviziya: tushuncha, funksiya, formalar. Psixologning ish yuklamalarini boshqarish. Sotsial ish xizmatidagi funksional majburiyat va yuklamalarni taqsimlash va izohlash. Psixologik xizmat xodimining huquq, majburiyat va mas’uliyatlari. Xodimlar tartib intizomini boshqarish. Psixologik xizmatda xodimlarning kasbiy o‘sishini va motivatsiyasini boshqarish.

**12- mavzu. Psixologiyada eksperimental paradigma (2 soat)**

Psixologiyada eksperimental paradigma. Insonni tushunishdagi pozitiv empirik va eksperimental yondashuv. Tadqiqotning yangi metodologiyasi. Intervyu turlari. Tadqiqotning simfat metodlari. Tadqiqotning miqdoriy va sifat metodlari. Tadqiqotning sifat metodlarining xususiyatlari, ularning turalri. Chuqur intervyu o‘tkazish qoidalari.

**13- mavzu. Gumanistik psixologiyada metod muammosi (2 soat)**

Gumanistik psixologiyada metod muammosi. Psixologiyada eksperimental va eksperımental paradigmalar. G.Ollportning miorfogenetik tadqiqotlar. A.Maslou konsepsiyasi. K.Rodjersning intersub’ektiv bilimi. R.Meyining fenomenologiyasi. I.Chayld va A.Djiordjlarning nazariyasi.

**14- mavzu. Psixologik xizmat faoliyatining yo‘nalishlari (2 soat)**

Ta’lim tizimida psixologik xizmat. Psixologik xizmat tuzilishi, uning vazifalari. Psixologik xizmatda amaliy psixologning o‘rni va uning kasbiy mutaxassislashtirish: psixodiagnostika, maslahat, psixoprofilaktika, psixokorreksiya. Amaliy psixologning huquq va majburiyatlari. Ushbu huquqlarni huquqiy, sotsial va axloqiy himoyasi. Ta’lim tizimi psixologi faoliyatidagi bahsli savollar.

**15- mavzu. Ta’lim tizimida psixologik xizmat (2 soat)**

Xalq ta’limi tizimi psixologi ishining o‘ziga xosligi (Mehribonlik uyi, internatlar), sotsial ta’minot, sog‘liqni saqlash (Bolalar uyi), huquq tartibot tizimi (maxsus maktab va kollejlar).

**Ma’ruza mavzularining soatlar bo‘yicha taqsimoti**

| № | Mashg'ulot mavzusi | Ma'ruza (soat) |
|---|---|---|
| 1 | Psixologik xizmatni tashkil etish tarixi | 2 |
| 2 | Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari | 2 |
| 3 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyati | 2 |
| 4 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish | 2 |
| 5 | Shaxsni o'zini o'zi anglashi | 2 |
| 6 | Shaxsni o'zini o'zi kamol toptirishi | 2 |
| 7 | Amaliyotchi-psixolog faoliyati | 2 |
| 8 | Amaliyotchi-psixologning etikaviy tamoyillari | 2 |
| 9 | Amaliyotchi-psixologning maxsus qobiliyatlari | 2 |
| 10 | Sotsial-psixologik xizmat | 2 |
| 11 | Sotsial xizmatda personalni boshqarish | 2 |
| 12 | Psixologiyada eksperimental paradigma | 2 |
| 13 | Gumanistik psixologiyada metod muammosi | 2 |
| 14 | Psixologik xizmat faoliyatining yo'nalishlari | 2 |
| 15 | Ta'lim tizimida psixologik xizmat | 2 |
| | **Jami soat** | **30** |

### III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish rivojlantiruvchi va muammoli ta'lim tamoyillari asosida qurilishi lozim. Seminar mashg'ulotlarining informatsion va pedagogik-texnologik ta'minoti: seminar mashg'ulotlari an'anaviy va press-konferensiya diskussiya ko'rinishlarida olib boriladi. Talabalar seminar mashg'ulotlariga tayyorlanishlari jarayonida tadqiqiy monografiyalardan hamda mustaqil ravishda tayyorlagan ko'rgazmali qurollaridan foydalanishlari shart. Seminarlarni o'tkazish davomida psixodiagnostik metodikalar, o'qitish va badiiy filmlari qo'llanilishi mumkin.

**Seminar mavzularining soatlar bo'yicha taqsimoti**

| № | Mashg'ulot mavzusi | Seminar |
|---|---|---|
| 1 | Psixologik xizmatni tashkil etish tarixi | 2 |
| 2 | Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari | 2 |
| 3 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyati | 2 |
| 4 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish | 2 |
| 5 | Shaxsni o'zini o'zi anglashi | 2 |
| 6 | Shaxsni o'zini o'zi kamol toptirishi | 2 |
| 7 | Amaliyotchi-psixolog faoliyati | 2 |
| 8 | Amaliyotchi-psixologning etikaviy tamoyillari | 2 |
| 9 | Amaliyotchi-psixologning maxsus qobiliyatlari | 2 |
| 10 | Sotsial-psixologik xizmat | 2 |
| 11 | Sotsial xizmatda personalni boshqarish | 2 |
| 12 | Psixologiyada eksperimental paradigma | 2 |
| 13 | Gumanistik psixologiyada metod muammosi | 2 |
| 14 | Psixologik xizmat faoliyatining yo'nalishlari | 2 |
| 15 | Ta'lim tizimida psixologik xizmat | 2 |
| | **Jami soat** | **30** |



Seminar mashg'ulotlarda mavzularga oid o'quv topshiriqlar bajarish, konspekt yozish, birlamchi va ikkilamchi manbalarni o'rganish, pedagogik texnologiyalarning usul va uslublari yordamida ko'rgazmali savol-javoblar, doklad va taqdimotlar bajarish. Seminar mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tiladi.

### IV. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda ular darslik va o'quv qo'llanmalardan fan boblari va mavzularini o'rganish, tarqatma materiallar asosida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish, maxsus adabiyotlar asosida fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash, talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish, faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari, nazariy va seminar mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish, badiiy asarlarni psixologik jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni psixologik tomondan kuzatib borish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

| Mustaqil ta'lim (MT) (6-semestr) | | | Soat |
|---|---|---|---|
| | Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: | | 60 |
| M1 | Psixologik xizmatni tashkil etish tarixi. | Taqdimot tayyorlash | 4 |
| M2 | Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari. | Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. | 4 |
| M3 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyati. | | 4 |
| M4 | Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish. | Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. | 4 |
| M5 | Shaxsni o'zini o'zi anglashi. | Esse tayyorlash | 4 |
| M6 | Shaxsni o'zini o'zi kamol toptirishi | Taqdimot tayyorlash | 4 |
| M7 | Amaliyotchi-psixolog faoliyati. | Referat tayyorlash | 4 |
| M8 | Amaliyotchi-psixologning etikaviy tamoyillari. | Referat tayyorlash | 4 |
| M9 | Amaliyotchi-psixologning maxsus qobiliyatlari. | Taqdimot tayyorlash | 4 |
| M10 | Sotsial-psixologik xizmat. | Taqdimot tayyorlash | 4 |
| M11 | Sotsial xizmatda personalni boshqarish | Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. | 4 |
| M12 | Psixologiyada eksperimental paradigma | | 4 |
| M13 | Gumanistik psixologiyada metod muammosi | Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. | 4 |
| M14 | Psixologik xizmat faoliyatining yo'nalishlari. | Taqdimot tayyorlash | 4 |
| M15 | Ta'lim tizimida psixologik xizmat. | Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. | 4 |

Ushbu o'quv fani bo'yicha mustaqil ta'lim olish darslik va o'quv qo'llanmalardagi tegishli mavzularni o'rganishni, fan bo'yicha maxsus (shu jumladan, ilmiy-tadqiqiy) adabiyotlarni o'rganishni, seminar mashg'ulotlariga tayyorlanishni taqozo etadi. Bundan tashqari, tadqiqiy maqolalar va monografiyalarga annotatsiya yozish hamda ularni konspektlashtirish, strukturali-mantiqiy sxemalar tuzish, tanqidiy fikrlash qobiliyatini tekshirish va uni rivojlantirishga qaratilgan masalalar va amaliy mashqlarni tanlash tavsiya etiladi.

| № | Topshiriqlarning nomi | Soatlar hajmi |
|---|---|---|
| 1 | Mustaqil ish mashg'ulotlariga tayyorlanish | 30 |
| 2 | Adabiyotlarni tahlil qilish | 30 |
| | **JAMI** | **60** |

3. **VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

psixologik xizmat ko'rsatish jarayonning qonuniyatlari va tamoyillari; psixologik xizmat ko'rsatish jarayonining amalga oshirish metodlari; psixologik bilimlarning umumiy nazariy asoslari; psixologik yordam ko'rsatish jarayonida mutaxassis va mijoz o'rtasidagi kechadigan jarayonlar ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***;

psixologik masalahat o'tkazish; ilmiy yechimlar bo'yicha xulosa va tavsiyalarni shakllantirish; psixologik xarakteristikalarini aniqlash; har xil sharoitlarda psixologik xizmat ko'rsatishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

ilmiy-nazariy jihatdan olingan bilimlarni tahlil qilish, seminar mashg'ulotlarda mustaqil fikr yuritish, bilimlarga ijodiy yondoshish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

4. **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- faollashtiruvchi ma'ruzalar;
- interfaol metodlar;
- seminarlar (munozara, mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- individual va jamoaviy loyihalar;
- taqdimotlar qilish;
- keys-stadilar.

5. **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Boshqaruv va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmat fanidan 3-kurs 6-semestrda 30 soat ma'ruza, 30 soat seminar va 60 soat mustaqil ta'lim *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 3-kurs 6-semestrda 4 **kredit beriladi**.

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi**.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** Oraliq nazorat o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda 2 marta o'tkaziladi. Fanning ma'ruza va seminar mashg'ulotlari qismiga tegishli asosiy qismi o'tib bo'lingandan so'ng ON olinadi. Bunda o'tilgan mavzularga doir 3 ta yozma savollari varianti tarqatiladi. (Har bir oraliq nazorat bilet ko'rinishadigi savolnomalardan iborat bo'lib, 1 ta savolga javob berganiga 1,5, 2 ta savolga 3, 3 ta savolga javob berganiga 4,5, fanga bo'lgan munosabatiga 0,5 ball bilan baholanadi). O'quv semestr davomida 2 marta amalga oshiriladi.

1-oraliq nazorat 7 chi ma'ruza darsidan so'ng amalga oshiriladi (balli konvertatsiya asosida 2 dan 5 ballgacha) baholanadi. Umumiy baho to'plangan ballni 3 ga bo'lgan holda o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.

2-oraliq nazorat 14 chi 15 mavzulardan so'ng amalga oshiriladi (balli konvertatsiya asosida 2 dan 5 ballgacha) baholanadi. Har bir oraliq nazorat bilet ko'rinishadigi savolnomalardan iborat



bo'lib, 1 ta savolga javob berganiga 1,5, 2 ta savolga 3, 3 ta savolga javob berganiga 4,5, fanga bo'lgan munosabatiga 0,5 ball bilan baholanadi).

**Oraliq nazorati savollaridan namuna**

**1-bilet**

1. Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari
2. Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish
3. Psixologik xizmat faoliyatining yo'nalishlari

**Yakuniy nazorat:** Yakuniy nazorat ma'ruza mavzulari asosida tuzilgan biletlar bo'yicha 3 tadan nazariy savol beriladi va yozma tarzda olinadi. Har bir javob uchun maksimal ball 20 ball. Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho – 60 ball.

**Izoh:** *Nazorat turlari, shakllari va soniga kafedra yig'ilishi qarorlariga asosan o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

**Yakuniy nazorat savollaridan namuna**

**3-bilet**

1. Psixologik xizmatni tashkil etish tarixi
2. Amaliyotchi-psixolog faoliyati
3. Ta'lim tizimida psixologik xizmat.

**Mustaqil ta'lim:** 30 ball bilan baholanadi, har bir berilgan vazifa uchun 2 balldan baholanadi. Umumiy topshiriqlar soni 15 ta.

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

**Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining **2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli** buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentyabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'grisidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi.

**"5" baho (a'lo)** – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi.

**"4" baho (yaxshi)** – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi.

**"3" baho (qoniqarli)** – talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi.

**"2" baho (qoniqarsiz)** – talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qo'yiladi.

| | |
|---|---|
| | **3. Yakuniy va oraliq baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:**<br>Fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baholik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.<br>**Oraliq nazorat:** Oraliq nazorat o'tilgan mavzular asosida **yozma** shaklda o'tkaziladi. Fanning ma'ruza va seminar mashg'ulotlari qismiga tegishli asosiy qismi o'tib bo'lingandan so'ng ON olinadi. Bunda o'tilgan mavzularga doir 3 ta yozma savollari varianti tarqatiladi. Talaba yozgan javobining har biridan maksimal 5 baho to'plash imkoniyatiga ega. Umumiy baho o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.<br>**Yakuniy nazorat:** Yakuniy nazorat ma'ruza mavzulari asosida biletlar bo'yicha 3 tadan nazariy savol beriladi va **yozma** tarzda olinadi. Har bir javob uchun maksimal ball 20. Umumiy baho har bir savolga qo'yilgan bahoning o'rtachasi asosida hisoblanadi. Maksimal baho - 60 ball (5)"a'lo".<br>Oraliq nazorat va yakuniy nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi. |
| 6. | **IX. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Федотов Е.В. Основы социальнопсихологического управления. Нижний Новгород ННГАСУ 2010<br>2. Yulchiyeva Z.N. Boshqaruv psixologiyasi. Toshkent 2021.<br>3. D.I. Mukumova, R.X. Fayzullaev, A.A. Jumanov, S.B. Yarova Boshqaruv psixologiyasi 2023<br>4. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi Chirchiq 2020.<br>**X. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2019 yil<br>2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil<br>3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil<br>4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda parpo etamiz. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil<br>5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent.; O'zbekiston nashriyoti. 2017 yil<br>6. Carr A. Family Therapy. Concepts, Process and Practice. Second Edition. – John Wiley & Sons Ltd, 2006. – 649 p.<br>7. Aleshina Yu.E. Individualnoe i semeynoe psixologicheskoe konsultirovanie. - M., 1994.<br>8. Aleshina Yu.E., Danilin K.E., Dubovskaya Ye.M. Spespraktikum po sotsialnoy psixologii: opros, semeynoe i individualnoe konsultirovanie.M., 1989.<br>9. Dubrovina I.V. Shkolnaya psixologicheskaya slujba. M., 1991<br>**Axborot manbaalari**<br>1. Elektronnaya biblioteka. http://www.koob.ru<br>2. Materialы po psixologii. http://www.psychology-online.net<br>3. Psixologicheskaya biblioteka «Samopoznanie i samorazvitie»: http://psylib.kiev.ua/<br>4. Sayt «Psixologiya na russkom yazыke»: http://www.psychology.ru/Library<br>5. Sayt «Mir psixologii»: http://psychology.net.ru/articles |



| | |
|---|---|
| 7. | O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil "___" "___" dagi "_____" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri, psixol.f.n., dotsent**<br>**Aslonov I.N.** __________ *(imzo)* |
| 9. | **Tuzuvchilar:**<br>**Karimov.F.T.** __________ *(imzo)*<br>Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 10. | **Taqrizchilar:**<br>**Sattorov V.N.** __________ *(imzo)*<br>Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.;<br>**R.G.Mullaxmetov** __________ *(imzo)*<br>Toshkent shahridagi Belarus – O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi |